

rivojlanish tendensiyalari va unda O‘zbekistonning ishtiroki. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2-son, 764–768.

[2] Astanakulov, O., & Sokhibova, M. (2025). *Assessing the Contribution of Tourism to Uzbekistan’s Economic Growth: Analysis of Influencing Factors*. *Economics, Finance and Management Review*, 4(24), 4–16.

[3] Karimov, M., Okmullaev, R., Marty, P., & Saidmamatov, O. (2025). *Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road*. *Economies*, 13(9), 250.

[4] Statista Market Insights. (2025). *Travel and Tourism in Uzbekistan: Revenue, Sales Channels, Average Daily Expenditure* [Statistik ma’lumotlar to‘plami].

[5] Bakhodirov, B.B. (2026). *Prospects and Problems of Tourism Capacity in Uzbekistan*. *London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation*, 590–591.

Shohruh MARDONOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi,
Shaxrizoda JO‘RAYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

O‘ZBEKISTONDA TURISTIK RESURSLAR RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2020–2025-yillar oralig‘ida O‘zbekistonga tashrif buyurgan turistik safarlar va turistik resurslar bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqotda korrelatsiya va regressiya kabi statistik usullar yordamida turistik resurslar rivojlanishining turistlar oqimiga ta’siri o‘rganilgan. Tahlil natijalari asosida turistlar sonini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: turistik resurs salohiyati, sayyohlik oqimi, sayyohlik safarlari, korrelyatsion tahlil, regressiya tahlili, turizm rivojlanishi.

Аннотация. В данной статье проанализирована взаимосвязь между туристическими поездками и туристическими ресурсами в Узбекистане за период 2020–2025 годов. В исследовании с использованием статистических методов, таких как корреляционный и регрессионный анализ, изучено влияние развития туристических ресурсов на поток туристов. На основе результатов анализа представлены практические рекомендации, направленные на увеличение числа туристов.

Ключевые слова: потенциал туристических ресурсов, туристический поток, туристические поездки, корреляционный анализ, регрессионный анализ, развитие туризма.


Abstract. This article analyzes the relationship between tourist trips and tourism resources in Uzbekistan over the period 2020–2025. The study employs statistical methods such as correlation and regression analysis to examine the impact of tourism resource development on tourist flows. Based on the results, practical recommendations aimed at increasing the number of tourists have been provided.

Keywords: tourism resource potential, tourist flow, tourist trips, correlation analysis, regression analysis, tourism development.

Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va yuqori daromad keltiruvchi sohalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy o‘shishga, balki madaniy almashinuv, bandlikni oshirish va hududiy rivojlanishga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston ham o‘zining turistik salohiyatini rivojlantirish va xalqaro turizm bozorida o‘rnini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston boy tarixiy merosi, madaniy yodgorliklari va tabiiy resurslari bilan yirik turistik imkoniyatlarga ega mamlakatlardan biridir. Turistik resurslarning rivojlanish darajasi esa mamlakatga amalga oshirilayotgan turist safarlari oqimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli turistik resurslar va turist safarlari oqimi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

2021–2025-yillar oralig‘ida O‘zbekistonga amalga oshirilgan turistik safarlarining maqsadli yo‘nalishlariga e’tibor qaratisa, ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda safarlar tarkibidagi eng katta ulush qarindoshlarga tashrif maqsadiga to‘g‘ri keladi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatkich 2021-yildagi 577,8 ming safardan 2025-yilga kelib 3596,8 ming safargacha sezilarli darajada oshgan bo‘lib, barqaror o‘shish tendensiyasi kuzatiladi.



1-rasm. 2021-2025-yillar oralig‘ida turist safarlari sonining maqsadlar bo‘yicha taqsimoti (mingta safar).²¹⁷


Mazkur holat sayyohlik safarlarining turistik resurslar salohiyati bilan o‘zaro bog‘liqligini baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu maqsadda 2-chizmada turistik resurslar soni va sayyohlik maqsadidagi safarlar dinamikasi birgalikda tahlil qilingan. Grafik natijalari har ikki ko‘rsatkichda ham o‘shish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi.

Turistik resurslar va sayyohlik maqsadidagi safarlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda uning kuchini baholash maqsadida korrelyatsion tahlil qo‘llanildi. Korrelyatsiya tahlili o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikning yo‘nalishi

²¹⁷ Rasm <https://stat.uz/files/617/choraklik-natijalar-2025-yanvar-dekabren/4289/20-TOURIST-FLOWS.pdf> ma’lumotlari asosida muallif tomidan tayyorlandi.

va darajasini aniqlash imkonini beradi. Natijada ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida ijobiy va nisbatan kuchli bog'liqlik mavjudligi aniqlandi ($r = 0,72$), bu esa ularning o'zaro bir yo'nalishda o'zgarishini bildiradi. Biroq korrelyatsiya faqat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi, uning ta'sir darajasini esa to'liq ifodalay olmaydi. Shu sababli ushbu bog'liqlikning miqdoriy ta'sirini baholash maqsadida regressiya tahlili amalga oshirildi. Regressiya tahlili bir o'zgaruvchining ikkinchisiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi. Olingan natijalarga ko'ra, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,52$ ni tashkil etdi, bu esa sayyohlik safarlaridagi o'zgarishlarning taxminan 52 foizi turistik resurslar soni bilan izohlanishini bildiradi.

Turistik resurslar va sayyohlik maqsadidagi safarlar o'rtasida aniqlangan ijobiy bog'liqlikdan kelib chiqib, turizm oqimini yanada oshirish uchun resurs salohiyatini samarali boshqarish va kengaytirish zarur hisoblanadi. Xususan, mavjud tabiiy, tarixiy va madaniy turistik resurslarni kompleks baholash hamda ularni turizm mahsulotiga aylantirish darajasini oshirish muhimdir. Bu esa hududlarning turistik jozibadorligini kuchaytirib, sayyohlar oqimining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.



2-rasm. Turistik resurslar va sayyohlik maqsadidagi safarlarining o'sish tendensiyasi²¹⁸

Turistik resurslarga asoslangan yangi yo'nalishlarni shakllantirish va kam o'rganilgan hududlarni turizm aylanmasiga kiritish orqali sayyohlik geografiyasini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunda infratuzilma, xizmat ko'rsatish sifati va logistika tizimining rivojlanishi resurs salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatini yanada oshiradi.

Turistik resurslarni raqamlashtirish, ya'ni ularni elektron platformalar va onlayn targ'ibot vositalari orqali keng ommaga taqdim etish sayyohlar oqimini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, resurslarga asoslangan turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish turizmning raqobatbardoshligini oshiradi.

Turistik resurslar salohiyatidan samarali foydalanish va uni tizimli rivojlantirish sayyohlik oqimini oshirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda turistik resurslar soni va sayyohlik maqsadidagi safarlar

²¹⁸ Rasm <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/rasmiy-statistika-kalendari> ; <https://stat.uz/files/617/choraklik-natijalar-2025-yanvar-dekabren/4289/20-TOURIST-FLOWS.pdf> ma'lumotlari asosida muallif tomidan tayyorlandi.

o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Bu esa turistik resurslar ortishi bilan sayyohlik safarlari ham oshib borishini, ya’ni ular o‘zaro bog‘liq holda o‘zgarishini ko‘rsatadi.

**Shamengul DARMENBAYEVA, magistrant,
Ilmiy rahbar: Samadjon MAMUROV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dotsenti, PhD**

O‘ZBEKISTONDA SMART TURIZMNING HOZIRGI HOLATI

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistondagi smart texnologiyalarini joriy etish, amalga tadbir etishi va O‘zbekistonda turizm sohasida smart texnologiyalarining hozirgi holati yoritilib beriladi. “Smart Tourism” konsepsiyasining afzalliklari va sohadagi so‘nggi statistik ma’lumotlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Smart turizm, raqamli transformatsiya, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), innovatsion infratuzilma, elektron viza, QR-kod, barqaror turizm, sun‘iy intellekt, “Aqlli shahar”.

Аннотация. В данной статье рассматриваются внедрение и практическое применение смарт-технологий в Узбекистане, а также их текущее состояние в сфере туризма. Анализируются преимущества концепции «Smart Tourism» и приводится анализ последних статистических данных в данной области.

Ключевые слова: Смарт-туризм, цифровая трансформация, ИКТ в туризме, инновационная инфраструктура, электронная виза, QR-коды, устойчивый туризм, искусственный интеллект, «Умный город».

Abstract. This article examines the implementation and practical application of smart technologies in Uzbekistan, as well as their current state in the tourism sector. It analyzes the advantages of the "Smart Tourism" concept and reviews the latest statistical data in this field.

Keywords: Smart tourism, digital transformation, ICT in tourism, innovative infrastructure, e-visa, QR-codes, sustainable tourism, artificial intelligence, Smart City.

Global raqamlashtirish sharoitida turizm industriyasi tub transformatsiyani boshidan kechirib, an’anaviy xizmat ko‘rsatish shakllaridan yuqori texnologik “Smart turizm” (Aqlli turizm) modeliga o‘tmoqda. O‘zbekistonda turizmni iqtisodiyotning strategik drayveriga aylantirish vazifasi qo‘yilgan bir paytda, sohani innovatsion infratuzilma bilan integratsiyalash o‘ta muhimdir. Mazkur tadqiqot “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida turistik salohiyatni zamonaviy AKT yechimlari orqali oshirish zaruriyatiga asoslanadi. Ushbu maqolada turizmning raqamli ekotizm va smart turizmi rivojlanish yo‘llari, muommosi va yechimlar yoritilgan.

Smart turizm tushunchasi ilmiy adabiyotlarda faqat texnologik yangilanish emas, balki turistik ekotizimning barcha ishtirokchilari o‘rtasida ma’lumotlarning uzluksiz almashinuvi sifatida talqin etiladi. Xususan, xalqaro tadqiqotchi Gretzel va boshqalar (2015) smart turizmni “jismoniy infratuzilmaning raqamli texnologiyalar bilan